

## Korrupsiyaga qarshi kurash – dolzarb masala

Taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan O'zbekiston uchun korrupsiyaning har qanday shakldagi ko'rinishi islohotlar shiddatini susaytirishi bilan xavfli.

Shu boisdan ham davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev o'z vakolatiga kirishishi bilan Prezident sifatida imzo chekkan eng birinchi hujjat "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bo'ldi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 27- maydagi "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi ПФ-5729- sonly farmoni imzolangan.

Qonun va Farmonlarning ijrosini ta'minlash maqsadida joriy yilning 23-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Idoralararo komissiyasining O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasi Samarqand viloyati boshqarmasining majlislar zalida navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda Samarqand viloyati statistika boshqarmasidan boshqarma boshlig'ining o'rinbosari, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Samarqand viloyati idoralararo komissiya a'zosi Toshpo'latov Shodmon Zaydinovich ishtirok etdi.

Yig'ilishni Samarqand viloyati prokurori - Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Samarqand viloyati idoralararo komissiyasining raisi Masharipov Ravshan Rajabboyevich olib bordi.

Tadbirda shu bilan birga, korrupsiya jinoyatining vujudga kelish tarixi to'g'risida, jumladan, korrupsiya – bu mansabdor shaxslar faoliyati bilan bog'liq jinoyat ekanligi, korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali usullaridan biri – har qanday sohada, tizimda korrupsiya holatlarning vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarga barham berilishi kerakligi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Tadbir davomida yig'ilganlar huquq-tartibot organlari vakillaridan soha bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob olishdi.

Seminarda kelgusida davlatimiz ravnaqi uchun har bir O'zbekiston fuqarosi mas'ul ekanligi, korrupsiyaga qarshi kurashish – butun bir millat zimmasidagi mas'uliyat

ekanligini anglab, milliy davlatchiligimiz ravnaqi uchun barcha sidqidildan mehnat qilish lozimligi ta'kidlab o'tildi.



